



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLUKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamroqul Iloxovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi	
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich	
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich	
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	



TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH

U.U.Nurullayev

Samarqand agroinnovatsiyalar

va tadqiqotlar instituti, mustaqil izlanuvchi,

Email: nurullaevlugbek07@gmail.com,

Tel: +998932359788

Abstract. This study examines the impact of non-farm activities related to household plot farming among the rural population. The study uses data from a social survey conducted among 1,843 household plot farms in rural areas of the Samarkand region. The Tobit model was applied to economically assess the impact of non-farm activities related to household plot farming on income generated from such activities. The results indicate that the development and/or organization of non-farm activities related to household plot farming in rural areas is statistically significant at the 1 percent level ($***p < 0.01$). Based on the findings, scientifically grounded recommendations were developed to increase income derived from household plot farming activities.

Keywords: household plot farming, crop production, livestock farming, non-farm activities, Tobit model, income.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida qishloq aholisining tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda Samarqand viloyati qishloqlaridagi 1 843 ta tomorqa xo'jaligida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlilda tomorqa xo'jaligi faoliyatidan olingan daromadga u bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatining ta'sirini iqtisodiy baholashda Tobit modelidan foydalanilgan. Natijada qishloq hududlarida tomorqa xo'jaligi bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish va/yoki tashkil etish 1 foizlik darajada ($***p < 0,01$) statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Olingan tahlil natijalari asosida tomorqa xo'jaligi faoliyatidan olinadigan daromatlarni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tomorqa xo'jaligi, o'simlikchilik, chorvachilik, noqishloq xo'jaligi faoliyati, Tobit modeli, daromad.

Аннотация. В данной научно-исследовательской работе изучено влияние несельскохозяйственной деятельности, связанной с ведением приусадебного хозяйства сельским населением. В исследовании использованы данные социологического опроса, проведённого среди 1 843 приусадебных хозяйств в сельских населённых пунктах Самаркандской области. Для экономической оценки влияния несельскохозяйственной деятельности, связанной с приусадебным хозяйством, на доходы от его деятельности применена модель Тобита. В результате установлено, что развитие и/или организация несельскохозяйственной деятельности, связанной с приусадебным хозяйством в сельской местности, имеет статистически значимое влияние на уровне 1 процента ($***p < 0,01$). На основе полученных результатов анализа разработаны научно обоснованные предложения по увеличению доходов от деятельности приусадебных хозяйств.

Ключевые слова: приусадебное хозяйство, растениеводство, животноводство, несельскохозяйственная деятельность, модель Тобита, доход.

KIRISH

Dunyo mamlakatlari tajribasida uzoq yillar davomida qishloqlarni rivojlantirish siyosati, xususan, qishloq aholisi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish hamda tomorqa xo'jaliklari samaradorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qishloqni kompleks rivojlantirish strategiyalarining asosiy yo'nalishini



tashkil etib kelmoqda [1]. Shu jarayonda qishloqlarda noqishloq xo'jaligi faoliyatining rivojlanishi ham qishloq aholisi daromadlarini diversifikatsiya qilish, tomorqa xo'jaliklari samaradorligini oshirish va barqaror yashash sharoitlarini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda [2].

Bunda qishloq hududlarida mehnatga layoqatli aholining, ayniqsa, kambag'al oila a'zolarining ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi faoliyati ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2015-yilda jahon hamjamiyati 2030-yilgacha odamlar hayotini yaxshilash uchun barqaror rivojlanishning 17 ta global maqsadini qabul qilgan [3]. Unda qashshoqlik va ochlikni yo'qotish, salomatlik va farovonlikni ta'minlash, sifatli ta'lim, gender tengligi, toza ichimlik suvi va kanalizatsiya, arzon va yashil energiya, munosib mehnat sharoitlari va iqtisodiy o'sish, tengsizlikni kamaytirish hamda boshqa maqsadlar qamrab olingan.

Mazkur global maqsadlarni amalga oshirish jarayonida har bir mamlakat hukumati tomonidan ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, qishloq joylarda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, tomorqa xo'jaliklari samaradorligini oshirish hamda qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va ilmiy muassasalari tomonidan [3] qishloq hududlari aholisi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish masalalari yuzasidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [4]. Xususan, B. Davis va boshqalarning [5] ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, noqishloq xo'jaligi faoliyatidan olinadigan daromadlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Biroq oila xo'jaligi a'zolarining doimiy ravishda noqishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lishi oila a'zolarining tomorqa xo'jaligiga sarflaydigan mehnati kamayishiga ta'sir ko'rsatsa-da, qishloq xo'jaligidan olinadigan daromadlarning kamayishiga olib kelmaydi [6]. Oila a'zolarining noqishloq xo'jaligi faoliyatidan olgan daromadi hisobiga tomorqa xo'jaligi uchun ishlab chiqarish resurslarini sotib olish, yangi texnologiyalarni joriy etish yoki yollanma ishchilarni jalb qilish orqali qishloq xo'jaligida daromadga erishish mumkin. Biroq oila xo'jaligi a'zolari uchun qishloq xo'jaligi faoliyatidan olinadigan daromadga nisbatan noqishloq xo'jaligi faoliyatidan olinadigan daromad muhimdir [7].

Qishloq hududlarida noqishloq xo'jaligi faoliyati qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq va bog'liq bo'lmagan iqtisodiy faoliyatni qamrab olib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati bilan daromadlar orqali bevosita va bilvosita bog'liqdir [8]. Qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi faoliyati bir-birini bevosita va bilvosita to'ldiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlashni tashkil etish qishloq aholisi bandligini oshiradi [9]. Ba'zi hollarda esa qishloq xo'jaligi faoliyati kabi ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki qadoqlash sohasi ham mavsumiy faoliyat olib borib, qishloq aholisi bandligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday jarayonda kam mablag' sarflash hisobiga qishloq hududlaridagi mehnatga layoqatli ishsizlarni kasbiy o'qitish yoki qayta tayyorlash orqali ularning bandligini ta'minlash mumkin.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatining ta'sirini iqtisodiy baholash orqali ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyati qishloq hududlaridagi tomorqa xo'jaliklari olindi. Tadqiqot Samarqand viloyatining 14 ta tumanidagi 1 843 ta tomorqa xo'jaligida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ma'lumotlari asosida olib borildi. So'rovnomada aksariyat tomorqa xo'jaligi subyektlari ishtirok etdi. Biroq oila boshliqlari xorijga yoki boshqa viloyatlarga ishlash uchun ketgan tomorqa xo'jaliklarida so'rovnomada oila a'zolari ishtirok etdi. So'rovnoma 2025-yilning mart-may oylarida o'tkazildi.

Viloyatda jami 1 098 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, shundan 852 tasi yoki 77,6 foizi tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Tumanlardagi mahalla fuqarolar yig'inlarining 97 tasida yoki 11,4 foizida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. 1 843 nafar respondentning oila xo'jaligidan tuman markazigacha bo'lgan o'rtacha masofa 10,9 km ni tashkil etdi.

Tomorqa xo'jaliklarida o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan o'rtacha daromad 7,485 mln so'mni tashkil etib, tomorqa xo'jaliklarida minimal daromad 0,8 mln so'mni, maksimal daromad esa 23,5 mln so'mni tashkil etgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval
O'zgaruvchilarning statistik tavsifi

O'zgaruvchilar	O'rtacha	St.Og'ish	Min	Max
O'simlikchilikdan olingan daromad, mln.so'm	7.485	3.937	.8	23.5
Chorvachilikdan olingan daromad, mln.so'm	7.777	3.935	0	22.5
Oila boshlig'ining asosiy faoliyati noqishloq xo'jaligi (0 – qishloq xo'jaligi; 1 -aksincha)	.597	.491	0	1
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashgacha bo'lgan masofa, km	8.759	4.352	.6	15.5
Agro-veterinariya xizmatigacha bo'lgan masofa, km	3.381	2.915	.4	9.6
Mineral o'g'it shaxobchasigacha bo'lgan masofa, km	3.138	2.09	.2	4.5
Omuxta-em shaxobchasigacha bo'lgan masofa, km	2.235	1.816	.2	3.4
Oila boshlig'ining ma'lumoti	2.04	.692	1	3
Oila boshlig'ining yoshi	47.881	6.799	27	60
Oila boshlig'ining tajribasi	20.679	6.682	2	21

*Izoh1: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma ma'lumotlari

Tomorqa xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'idan olingan o'rtacha daromad 7,777 mln so'mni tashkil etib, chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tomorqa xo'jaliklarida maksimal daromad 22,5 mln so'mni tashkil etgan. Tadqiqot obyektidagi barcha tomorqa xo'jaliklari ham chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanmaydi. So'rovnoma o'tkazish jarayonida aniqlanishicha, tuman markaziga yaqin hududlarda joylashgan tomorqa xo'jaliklarining aksariyati chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanmagan. Tuman markazlarida noqishloq xo'jaligi faoliyatining rivojlanishi qishloq hududlari aholisining chorvachilik faoliyati bilan shug'ullanishini cheklaydi.

Tomorqa xo'jaligi yer egalariining 59,7 foizi asosiy ish faoliyati bo'yicha noqishloq xo'jaligi sohasida band. Ularning ta'lim darajasi bo'yicha tomorqa yer egalariining minimal ma'lumoti o'rta ta'limni, maksimal ta'lim darajasi esa oliy ta'limni tashkil etadi. So'rovnomada ishtirok etgan tomorqa yer egalariining aksariyati o'rta va oliy ma'lumotga ega bo'lgan. Shuningdek, ularning o'rtacha yoshi qariyb 48 yoshni tashkil etadi. Tomorqa xo'jaligidagi ish tajribasi bo'yicha tomorqa yer egalariining minimal tajribasi 2 yilni, maksimal tajribasi esa 21 yilni tashkil etadi.

Tomorqa xo'jaligida o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi omillar, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sanoatigacha bo'lgan masofa, mineral o'g'itlar sotish shoxobchasigacha, agroveterinariya xizmatigacha hamda omuxta yem shoxobchasigacha bo'lgan masofalar miqdoriy ko'rsatkichlarda olindi. Tomorqa xo'jaligidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sanoatigacha bo'lgan o'rtacha masofa 8,146 kilometrni tashkil etib, mazkur obyektlar tomorqa xo'jaligidan minimal 0,5 kilometr va maksimal 17 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida hosil bo'ladigan ikkilamchi mahsulotlardan chorva mollarini oziqlantirishda tomorqa yer egalari tomonidan foydalanilishi chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromadga qay darajada ta'sir etishini iqtisodiy baholash muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, chorva mollarini o'simliklar yoki o'simlik qoldiqlari bilan oziqlantirishda tomorqa yer egalari tomonidan mineral o'g'itlardan foydalanishning iqtisodiy ta'sirini baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tomorqa xo'jaligidan mineral o'g'itlar sotish shoxobchasigacha bo'lgan o'rtacha masofa 3,42 kilometrni tashkil etadi.

Bog'liq o'zgaruvchi (Y) miqdoriy ko'rsatkichda ifodalanganligi sababli unga mustaqil o'zgaruvchining (X) qay darajada ta'sir etishini iqtisodiy baholashda, ya'ni tomorqa xo'jaligi faoliyatidan olingan daromadga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda Tobit modelidan foydalanildi [10]. Tobit modeli [11] bog'liq o'zgaruvchining alohida ravishda nol yoki boshqa chegara qiymatiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda foydalidir. Tadqiqot ma'lumotlarini tizimlashtirish, tahlil natijalarini bayon etish va maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Oila boshlig'ining asosiy ish faoliyati noqishloq xo'jaligi sohasida bo'lishi o'simlikchilik tarmog'idan olinadigan daromadni 0,432 koeffitsiyentga, chorvachilik tarmog'idan olinadigan daromadni esa 0,715 koeffitsiyentga oshiradi hamda mos ravishda 5 foizlik (**p < 0,05) va 1 foizlik (***p < 0,01) darajada statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tomorqa xo'jaligida tarmoq faoliyatiga noqishloq xo'jaligi faoliyatining iqtisodiy ta'sirini baholash*

Ta'sir etuvchi omillar	O'simlikchilik faoliyatidan olingan daromad	Chorvachilik faoliyatidan olingan daromad
	Koef. (St.Xatolik) muh.	Koef. (St.Xatolik) muh.
Oila boshlig'ining asosiy faoliyati noqishloq xo'jaligi	.432 (.196)**	.715 (.206)***
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatigacha bo'lgan masofa	-.022 (.025)	-.059 (.025)**
Agro veterinariya xizmatigacha bo'lgan masofa	-.073 (.04)*	-.04 (.045)
Mineral o'g'itlarni sotish shaxobchasi	-.102 (.047)**	X
Omuxta-yem shaxobchasigacha bo'lgan masofa	X	-.097 (.019)***
Oila boshlig'ining ma'lumoti	1.455 (.162)***	1.265 (.174)***
Oila boshlig'ining yoshi	.027 (.013) **	.063 (.012)***
Oila boshlig'ining tomorqachilikda tajribasi	.378 (.109)***	.631 (.11)***
O'zgarmas	2.843 (.902)	.87 (.892)
Mean dependent var	7.485	7.777
R-squared	0.136	0.154
F-test	48.645	54.985
Akaike crit. (AIC)	10027.837	9986.995
SD dependent var	3.937	3.935
Number of obs	1843	1843
Prob > F	0.000	0.000
Bayesian crit. (BIC)	10071.990	10031.149
*Izoh2: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga ma'lumotlar tahlili		
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1		

Oila boshlig'ining noqishloq xo'jaligi faoliyatidan oladigan daromadi chorvachilik tarmog'ini yuritayotgan tomorqa yer egalari uchun chorva mollarini sotib olish va ozuqa bazasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq qishloq hududlari aholisi uchun chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromad oila xo'jaligining strategik rejalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Qishloq xo'jaligi faoliyatidan olinadigan daromadlarning oshishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati va/yoki saqlash xizmatlarining tashkil etilishiga bog'liq. Biroq tomorqada yetishtirilgan o'simlik mahsulotlari tomorqa yer egalari va ularning oila a'zolari ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega [13, 14].

Shu o'rinda, tomorqa xo'jaliklarida ekin maydonlari hajmining kichikligi, o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan mahsulotlar hajmining kamligi hamda tomorqa yer egalari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati o'rtasida shartnomaviy munosabatlarning shakllanmaganligi sababli qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning ta'siri statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lmaganini tahlil natijalari ko'rsatmoqda.

Biroq qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirmaslik kerak, deb ayta olmaymiz. Qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini



qayta ishlash va saqlash bo'yicha noqishloq xo'jaligi faoliyatini tashkil etish tomorqa xo'jaligida chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromadni oshirishda 5 foizlik darajada ($p < 0,05$) statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ya'ni tomorqa xo'jaligidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatigacha bo'lgan masofaning 1 kilometrqa oshishi tomorqa xo'jaligida chorvachilikdan olinadigan daromadni 5,9 foizga kamaytiradi.

Tadqiqotimizdagi asosiy ilmiy topilma shuni ko'rsatmoqdaki, tomorqa xo'jaligida chorva mollarini oziqlantirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi mahsulotlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mehnatga layoqatli qishloq aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va/yoki saqlash bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lishi chorva mollari ozuqa bazasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq hududlarida tomorqa xo'jaliklari va umuman qishloq xo'jaligi faoliyatiga bevosita xizmat ko'rsatadigan agroveterinariya xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega [15]. Bizning tadqiqotimizda ham agroxiizmatlarning o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan daromadga ta'siri 10 foizlik darajada ($p < 0,1$) statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zero, agroxiizmatlar qishloq aholisi tomonidan tomorqa yerlarida yetishtirilayotgan o'simliklarga agroteknologik tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq veterinariya xizmatlarining chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromadga ta'siri statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega, deb ayta olmaymiz. Ya'ni qishloqlarda agroveterinariya xizmatlarining tomorqa yer egalaridan uzoq masofada joylashgani chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromadning oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, biroq bu ta'sir statistik jihatdan muhim emas.

Tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilayotgan o'simliklarni oziqlantirishda mineral o'g'itlardan foydalanish faoliyatdan olinadigan daromadni oshiradi. Tomorqa yer egalarining mineral o'g'itlar sotish shoxobchasiga yaqin hududda faoliyat yuritishi ularning mineral o'g'itlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Tadqiqotimiz tahlili natijalariga ko'ra, qishloq hududlarida tomorqa xo'jaliklaridan mineral o'g'itlar sotish shoxobchasigacha bo'lgan masofaning 1 kilometrqa oshishi o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan daromadni 10,2 foizga kamaytiradi va 5 foizlik darajada ($p < 0,05$) statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tomorqa xo'jaliklarida o'simliklarni mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lsa, chorva mollarini omuxta yem bilan oziqlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tomorqa xo'jaligidan omuxta yem sotish shoxobchalarigacha bo'lgan masofaning oshib borishi chorvachilik faoliyatidan olinadigan daromadning kamayishiga ta'sir etishini tahlil natijalari ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tomorqa xo'jaligi faoliyati aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, qishloq hududlarida aholi daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlashda muhim tarmoq hisoblanadi. Bu borada faoliyatdan olinadigan daromadni oshirishda tomorqa xo'jaligi bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish va tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Xususan, tomorqa xo'jaligidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatigacha bo'lgan masofaning 1 kilometrqa oshishi tomorqa xo'jaligida chorvachilikdan olinadigan daromadni 5,9 foizga kamaytiradi. Qishloq hududlarida tomorqa xo'jaliklari va umuman qishloq xo'jaligi faoliyatiga bevosita xizmat ko'rsatadigan agroveterinariya xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, agroxiizmatlarning o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan daromadga ta'siri 10 foizlik darajada ($p < 0,1$) statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilayotgan o'simliklarni oziqlantirishda mineral o'g'itlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni qishloq hududlarida tomorqa xo'jaliklaridan mineral o'g'itlar sotish shoxobchasigacha bo'lgan masofaning 1 kilometrqa oshishi o'simlikchilik faoliyatidan olinadigan daromadni 10,2 foizga kamaytiradi.

Umuman olganda, qishloq hududlarida, xususan, olis hududlarda tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq noqishloq xo'jaligi faoliyatini tashkil etish faoliyatdan olinadigan daromadni oshirish bilan bir qatorda qishloq aholisining noqishloq xo'jaligi faoliyatidagi bandligini ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davis J. R., Bezemer D. J. The Development of the Rural Non-Farm Economy in Developing Countries and Transition Economies: Key Emerging and Conceptual Issues // SSRN Electronic Journal. – 2004. – 38 p. – DOI: <https://doi.org/10.2139/ssrn.693061>.
2. Eurostat. Statistics on Rural Development and Agricultural Household Income [Elektron resurs]. – URL: <https://ec.europa.eu/eurostat> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
3. The Wye Group Handbook: Rural Households' Livelihood and Well-Being: Statistics on Rural Development and Agriculture Household Income. – Rome: FAO, UNECE, OECD, World Bank, Eurostat, 2007. – ISBN



- 978-92-1-116967-6. – URL: <https://www.fao.org/4/am085e/am085e00.htm> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
4. Woodhill J., Kishore A., Njuki J., Jones K., Hasnain S. Food Systems and Rural Wellbeing: Challenges and Opportunities // *Food Security*. – 2022. – Vol. 14, No. 5. – P. 1099–1121. – DOI: <https://doi.org/10.1007/s12571-021-01217-0>.
5. World Food Programme. Zero Hunger [Elektron resurs]. – URL: <https://www.wfp.org/zero-hunger> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
6. Hasanov S., Pardaev K., Saydullaeva F., Ismoilov S., Muratov S. Economic Assessment of the Factors Influencing Rural Population's Decision to Engage in Non-Agricultural Activities // *Integrated Systems: AI-Augmented Engineering: Proceedings of the International Conference on Integrated Systems: Design and Technology, ISDT 2025* / ed. by M.-R. Alam, M. Fathi, A. Pulatov. – Cham: Springer, 2026. – P. 156–170. – DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-032-21981-7_13.
7. Davis B., Winters P., Reardon T., Stamoulis K. Rural Nonfarm Employment and Farming: Household-Level Linkages // *Agricultural Economics*. – 2009. – Vol. 40, No. 2. – P. 119–123. – DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1574-0862.2009.00374.x>.
8. Hoang T. X., Pham C. S., Ulubaşoğlu M. A. Non-Farm Activity, Household Expenditure, and Poverty Reduction in Rural Vietnam: 2002–2008 // *World Development*. – 2014. – Vol. 64. – P. 554–568. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2014.06.027>.
9. Corral L., Reardon T. Rural Nonfarm Incomes in Nicaragua // *World Development*. – 2001. – Vol. 29, No. 3. – P. 427–442. – DOI: [https://doi.org/10.1016/S0305-750X\(00\)00109-1](https://doi.org/10.1016/S0305-750X(00)00109-1).
10. Reardon T., Stamoulis K., Balisacan A., Cruz M. E., Berdegue J., Banks B. Rural Non-Farm Income in Developing Countries // *The State of Food and Agriculture 1998*. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1998. – P. 283–356.
11. Muratov S., Burova E., Suloeva S., Hasanov S., Pardaev K., Isroilov B. The Role of Non-Farm Employment and Service Industries in Enhancing Rural Welfare // *International Journal of Technology*. – 2025. – Vol. 16, No. 3. – P. 1042–1059. – DOI: <https://doi.org/10.14716/ijtech.v16i3.7410>.
12. Ike P. C. Determinants of Participation in Non-Farm Economic Activities in South East Nigeria: A Tobit Analysis Approach // *Journal of Biology, Agriculture and Healthcare*. – 2015. – Vol. 5, No. 2. – P. 102–108.
13. Cai L. A. Analyzing Household Food Expenditure Patterns on Trips and Vacations: A Tobit Model // *Journal of Hospitality & Tourism Research*. – 1998. – Vol. 22, No. 4. – P. 338–358. – DOI: <https://doi.org/10.1177/109634809802200402>.
14. Li Z., Han G., Zhao M., Wang J., Wang Z., Kemp D., Michalk D., Wilkes A., Behrendt K., Wang H., Langford C. Identifying Management Strategies to Improve Sustainability and Household Income for Herders on the Desert Steppe in Inner Mongolia, China // *Agricultural Systems*. – 2015. – Vol. 132. – P. 62–72. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.agsy.2014.08.011>.
15. Ferdous Z., Datta A., Anal A. K., Anwar M., Khan A. S. M. M. R. Development of Home Garden Model for Year-Round Production and Consumption for Improving Resource-Poor Household Food Security in Bangladesh // *NJAS – Wageningen Journal of Life Sciences*. – 2016. – Vol. 78. – P. 103–110. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.njas.2016.05.006>.
16. Muratov S. A., Hasanov S. T., Kalandarov R., Kurbonov S. P., Usmanova A. Economic Assessment of the Influence of Innovations on Income from Household Activities in the Framework of Digital Economy // *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems — ICFNDS '23*. – New York: Association for Computing Machinery, 2023. – P. 33–41. – DOI: <https://doi.org/10.1145/3644713.3644719>.
17. Mungai L. M. et al. The Role of Agricultural Extension Services in Promoting Agricultural Sustainability: A Central Malawi Case Study // *Cogent Food & Agriculture*. – 2024. – Vol. 10, No. 1. – Art. 2423249. – DOI: <https://doi.org/10.1080/23311932.2024.2423249>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>